



INNOVATSION TA'LIM MUHITINI YARATISHDA O'QITUVCHI LIDERLIGINING O'RNI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi
kafedrası mudiri i.f.d DSc, dotsent, fan o'qituvchisi
Farruxbek0209@mail.ru; orcid.org/0000-0002-4574-7728

Boymurodova Shalola Ibodullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi

1-kurs magistranti

Email: hokimyat_stroy@umail.uz, <https://orcid.org/0009-0006-8531-5571>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18257800>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026

Accepted: 14th January 2026

Published: 15th January 2026

KEYWORDS

Innovatesiya, liderlik, ta'lim muhiti, pedagog, metodika, didaktik texnologiyalar, yangicha ta'lim, ta'lim sifati.

ABSTRACT

Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhitida kelib chiqadigan zamonaviy pedagogik talablar keltirilgan. Shuningdek o'qituvchining liderligi innovatsion ta'lim muhiti sharoitida qanday ahamiyat kasb etishi, bundan tashqari uning rivojlanish hamda shakillanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

XXI asrda ta'lim sohasi bilim berishdan tashqari insonni har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual salohiyatini ochib berish vositasiga aylanmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchining faqat dars o'tuvchi shaxs emas balki kreativ fikrlaydigan, o'z ustida ishlaydigan, zamonaviy tenika va texnologiyalardan foydalana oladigan, o'quvchilarni ilhomlantiradigan lider bo'lishi muhim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining bir qator nutq va asarlarida zamonaviy ta'lim tizimida lider o'qituvchi shaxsini shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlaydi: "Yangi O'zbekistonni barpo etish- bu, avvalo, ma'rifatli jamiyatni shakllantirish demakdir. Ma'rifatli jamiyat esa-bu zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, yangilikka intiluvchi, kreativ fikrlaydigan yoshlar jamiyatidir" (Mirziyoyev Sh.M., 2021).

Innovatsion ta'lim muhiti- ta'lim jarayonida yangi metodlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, kerativ yondashgan holda o'qitishning yangicha usullarini yaratishdir.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq qilish jarayonida ta'limning natijadorligini oshirish yuzasidan foydali tavsiyalar ishlab chiqishda ayni vaqtda yurtimizda ta'limni yanada rivojlantirish yo'lida bir qancha olimlarimiz pedagogika sohasiga o'z e'tiborlarini qaratmoqdalar. Shu o'rinda olimlarimiz pedagogik yo'nalishga innovatsion jarayonlarni olib kirmoqdalar. Shulardan, R.Ishmuhamedov, M.Yuldashevlar «Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar» nomli o'quv qo'llanmasida innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari, ta'lim tarbiyaning bugungi kundagi

talablari, innovatsion yondashuvlar hamda pedagogik jarayonlarni tashkil etilishini tahlil qilib, o'z fikr va tavsiyalarini keltirib o'tgan¹

Bundan tashqari R.H.Djurayev, S.T.Turg'unov, G.M.Nazirovlar «Pedagogika» o'quv qo'llanmasida pedagogi jarayonlarning tashkil etilishi, ularning samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarga to'xtalib o'tib, fikr va mulohazalarni ilmiy asoslarda yoritganlar²

O'qituvchi liderligi- bu pedagogning dars berishi, balki o'quv jarayonini rivojlantirish, turli innovatsiyalardan foydalangan holda jamoani birlashtirish qobiliyatidir. Lider o'qituvchi quyidagi jihatlar bilan alohida ajralib turadi.

- 1.Tashabbus ko'rsatgan holda yangiliklar yaratadi.
- 2.Jamoadagilarni bir bir bilan hamkorligini kuchaytiradi.
- 3.Muammoni yechimi bo'yicha tezkor qaror qabul qiladi.
- 4.O'quvchilarga maqsadga yo'naltiruvchi kuch beradi.
- 5.Ta'limni yanada sifatli bo'lishiga oz hissasini qo'shadi.

Bundan tashqari zamonaviy lider o'qituvchi elektiron, darsliklar, sun'iy intellekt asboblari, LMS platformalaridan unumli foydalanadi. Innovatsion muhitda o'qituvchi faqat bilim beruvchigina emas, balki hamkorlik tashkiliy lideri sifatida namoyon bo'ladi.

2022-2025 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra UNESCO (2024), OECD (2024) kabi global tashkilotlarning hisobotlariga ko'ra, ta'lim samaradorligi bevosita o'qituvchilarning liderlik salohiyati bilan bog'liq. 2023-2025-yillatdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- lider o'qituvchilar ishlaydigan maktablarda innovatsion faoliyat 35-40%ga yuqori;
- o'qituvchi liderligi oshgan ta'lim muassasalarida motivatsiya kuchli bo'ladi;
- tarqatilgan liderlik modeli jamoada innovatsion o'zgarishlarni tezlashtiradi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarning odamlar hayotidagi roli sezilarli darajada oshgan. Zamonaviy jamiyat axborotlashtirish deb ataladigan umumiy tarixiy jarayonga aylandi. Mazkur jarayon har bir fuqaroning axborot vositalari va manbalaridan foydalanish imkoniyatini, axborot texnologiyalarining ilmiy, ishlab chiqrish, jamoat sohalariga kirib borishini, axborot xizmatining yuqori darajasini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari ko'payib bormoqda.

Shulardan biri didaktik texnologiyalar. Ushbu texnologiya ta'lim muassasasi rivojlanishinig asosiy vositasi hisoblanadi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga tayanib darsni o'tar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, elektron doska, proyektor, va hokazo) faoydalanishi mumkin.

Lider o'qituvchining faoliyatida innovatsiyalardan qanchalik ko'p foydalansa samaradorlik shuncha oshadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolani yozishda qidiruv usullaridan samarali foydalanildi. Bunda qiyosiy tahlil, so'rovnoma usullaridan ham kengroq foydalanildi. Qidiruv tizimlaridan asosan google qidiruv tizimi, rambler, yandex qidiruv tizimlari hamda scopus ma'lumotlar bazasidan kengroq foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotimiz doirasida respublikada bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan M.E.Ergashevaning Innovatsion ta'lim texnologiyalari

¹ R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T: «Nihol», 2016. -10-14-b.

² Djurayev R.H., Turg'unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. – T., 2013. -44-45-b.

asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy axloqiy sifatlarini rivojlantirish nomli maqolasida bir qancha ilmiy farazlar hamda qarashlar o'z isbotini topgan.

Xolliyeva O'g'iloy Ali qizining Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchining kreativligi mavzusida o'zining maqolasida innovatsion ta'lim muhiti va undan kelib chiqadigan zamonaviy pedagogik talablar yoritilgan. Xususan, o'qituvchining kreativligi innovatsion ta'lim muhiti sharoitida qanday ahamiyat kasb etishi, uning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Panjiyeva Shaxnoz Obinjonovnaning innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchining kreativligi va uning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritadi. Shuningdek kreativlikning o'qituvchining professional faoliyatida qanday ahamiyatga ega ekanligi, innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari o'qituvchining kreativligi orqali talabalar uchun qiziqarli va samarali o'quv muhiti yaratishning ahamiyati tahlil etilgan.

Sh. D. Ablakulovning Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini, innovatsion ta'limning rivojlanishi, tendentsiyalar va istiqbollari, innovatsion ta'limni rivojlantirishda innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Ayniqsa Matmuratov Azizbek Abdikarimovichning ta'lim jarayonida pedagoglarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki lider sifatida faoliyat yuritishi zarurligi asoslab beriladi. Liderlik qobiliyatlari pedagogning tashabbuskorligi, kommunikativ mahorati, ijtimoiy-emotsional intellekti va jamoani boshqarish ko'nikmalari orqali shakllanishi keng yoritib berilgan.

Natija va muhokama. O'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim muhitini natijali tashkil etishda o'qituvchi liderligi asosiy o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari o'qituvchining liderlik qobiliyati nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirishga, shuningdek ta'lim muassasasida innovatsion madaniyatni keng shakllantirishga ham bevosita o'z ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, liderlik qobiliyati mavjud bo'lgan o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarida o'zgacha pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va didaktik texnologiyalarning qo'llanish darajasi sezilarli darajada baland bo'ladi. Shunday o'qituvchilar o'quvchilarni nafaqat bilim olishga emas, balki mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, kreativ qarorlar qabul qilishga unday oladi.

So'rovnoma va qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, lider o'qituvchilar ish olib borayotgan sinflarda o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi, faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari birqancha baland bo'lgan. Ayniqsa, innovatsion texnika va texnologiyalar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'quv jarayonining interfaol va samarali tashkil etilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'qituvchi liderligi quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- pedagogik jarayonda tashabbuskorlik va yangilikka intilish;
- jamoada hamkorlik muhitini shakllantirish;
- o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- muammoli vaziyatlarda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish;

- ta'lim jarayonida motivatsion va ilhomlantiruvchi muhit yaratish.

UNESCO va OECD tomonidan e'lon qilingan so'nggi yillardagi tadqiqotlar bilan solishtirganda, mazkur tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy xulosalar bilan mutanosib ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tarqatilgan liderlik modeli qo'llanilayotgan ta'lim muassasalarida innovatsion o'zgarishlar tez va samaraliroq amalga oshirilishi, pedagoglar o'rtasida professional hamkorlik kuchayishi hamda ta'lim sifati yanada oshishi kuzatila boshlagan.

Muhokama jarayonida shuningdek, o'qituvchi liderligining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ham aniqlab olindi. Ular qatoriga pedagogning kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, kreativ fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasi hamda uzluksiz o'z ustida faoliyat olib borishga bo'lgan intilishi kiradi. Xususan ushbu omillar parallel holda innovatsion ta'lim muhitining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi liderligi innovatsion ta'lim muhitining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u ta'lim jarayoni mazmuni, shakli va samaradorligini tubdan yangilash imkonini beradi. Shu sababdan ta'lim muassasalarida pedagoglarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va metodik mexanizmlarni keng tadbqiq qilish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa, qilib shuni aytish o'rinliki, lider o'qituvchining innovatsion ta'lim muhitini yaratishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli innovatsion ta'lim tizimi birgina bilim va ko'nikma berishni, shuningdek ta'lim jarayonida o'zcha usullar, innovatsion texnologiyalar va kreativ muhit asosida tashkil etadi. Shu vaqtda o'qituvchi ilg'or yetakchi sifatida ta'lim mohiyatini yangilashga hamda o'quvchini mustaqil fikrlashga, qiyin vaziyatlarni tahlil qilishga va bunyodkorlikka yo'naltirish vazifasini bajaradi.

O'qituvchi-lider texnologik g'oya va fikrlarlarni amaliyotga tadbqiq qilish orqali ta'lim muhitida shaffoflik, birdamlik va natijadorlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari o'qituvchi jamoada harakatchanlikni qo'llab-quvvatlaydi, hamkasblarini o'sishga undaydi hamda o'quvchilarning har birini ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etadi. Natijada ta'lim sifati oshadi, o'quvchilarning bilim va ko'nikma olishga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi.

References:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).
12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA NOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).
16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).
17. Qodirov, Farrux. "MASOFAVIY TA'LIMDA MOODLE. TUITKF. UZ PLATFORMASINING O'RNI VA ANAMIYATI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
18. Qodirov, Farrux. "RASPBERRY PI QURILMASINING TEXNIK XUSUSIYATLARI VA UNING IMKONIYATLARI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
19. Qodirov, Farrux. "PROTECTING WEBSITES FROM VARIOUS ATTACKS." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
20. Кодиров, Ф. "PROTSESS RAZRABOTKI IGROVOGO DVIJKA UNITY." Scienceweb academic papers collection (2019).